

SUVNING QATTIQLIGINI ANIQLASHNING MOHIYATI

Irgasheva Maftuna: TKTI Shahrисабз filiali talabasi

Tel: +998908780618

Normurodov Ilyos: TKTI Shahrисабз filiali o'qituvchisi

Tel: +998908780618

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv va uning qattiqligini yumshatish usullari hamda suvning qattiqlik darajasini aniqlashda kompleksonometriya usulidan foydalanish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: suv, kimyoviy moddalar, tabiiy gazlar, kompleksonometriya

СУТЬ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЖЕСТКОСТИ ВОДЫ

Аннотация: В данной статье описаны методы умягчения воды и ее жесткости, а также применение комплексонометрии для определения уровня жесткости воды.

Ключевые слова: вода, химические вещества, природные газы, комплексонометрия.

THE ESSENCE OF DETERMINING THE HARDNESS OF WATER

Abstract: This article describes methods of softening water and its hardness, as well as the use of complexonometry to determine the level of hardness of water.

Key words: water, chemicals, natural gases, complexonometry

Kirish: Suv (kimyoviy formulasi: H_2O) — hidsiz, rangsiz, ta'msiz, shaffof, suyuqlik shaklidagi kimyoviy moddadir. Yer sirtining 71 foizini egallaydi ($\sim 1.460 \times 10^{15}$ kilogram); Yerdagi suv asosan okean, dengiz, ko'l, daryo (95,6 %) kabi suv havzalarida, shuningdek muzlar, yer osti suvlari (1.6 %) va atmosferadagi suv bug'lari, bulutlarda (0.001 %) yig'ilgan. Bundan tashqari suv organizmlar tarkibida ham mavjud. Tabiatda uning tarkibida odatda eritilgan holdagi moddalar (tuzlar, gazlar) mavjuddir. Yerning geologik tuzilishi tarixi va unda xayotning paydo bo'lishi, fizik va kimyoviy muhit, iqlim va ob-havoning shakllanishida suv muhim ahamiyatga ega. Hech qanday tirik organizm suvsiz hayot kechira olmaydi. Suv qishloq xo'jaligi va sanoatdagi barcha texnologik jarayonlarning zaruriy qismidir.

Asosiy qism: Suv tabiatda keng tarqalgan. Yer yuzining qariyb 3/4 qismini tashkil qiladi. Gidrosfera — okeanlar, dengizlar, ko'llar, suv havzalari, daryolar, Yer osti suvlari, tuproqlar namini o'z ichiga olgan Yerning suvli pusti 1,4—1,5 mlrd. km³ ni tashkil etadi. Atmosferada suv bug', tuman, bulut, yomg'ir, qor holatida bo'ladi. Quruqlikning 10 % ga yaqin qismi muz bilan qoplangan. Litosferayaan gidrosferadagiga

yaqin miqdorda, ya'ni 1—1,3 mlrd. km³ suv bor. Yer mantiyasida ulkan miqdorda (13—15 mlrd. km³) suv bor. Barcha tirik organizmlardagi suv Yer yuzidagi daryolar suvining yarmiga teng. Yerdagi hamma suv bir-biri bilan va atmosfera, litosfera, biosferadagi suv bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Tabiiy sharoitda suv tarkibida doimo erigan tuzlar, gazlar va organik moddalar bo'ladi. Ular miqdori suvning hosil bo'lishiga va sharoitiga bog'liq. Suvdagi tuz konsentratsiyasi 1 g/kg gacha bo'lsa — chuchuk, 25 g/kg gachasi — tuzli, undan yuqorisi — shur suv deyiladi. Yog'in chuchuk, ko'l va daryo suvlari kam mineralli bo'ladi. Okean suvining sho'rliги 35 g/kg ga yaqin, dengizniki kamroq, chuchuk suvda N SO", Sa2Q va Mg2Q ionlari ko'proq. Suvning mineralligi oshgan sari S O, S1~, NaQ va KQ ionlarining konsentratsiyasi ko'payib boradi.

Tabiiy suvda erigan gazlar — azot, kislород, karbonat angidrid, asl gazlar, ba'zan, vodorod sulfid, uglevodlar bo'lishi mumkin. Suvda organik moddalar konsentratsiyasi oz — daryolarda o'rtacha 20 mg/l, Yer osti Sida yanada oz, okean Sida esa 4 mg/l. Vodorodning 2 ta barkaror izotopi ('H va 2H) va kislородning 3 ta izotopi (|6O, O17, |8O) borligi tufayli 9 ta turliche izotopli ma'lum. Yerdagi barcha suvda tarkibida vodorodning izotopi — tritiy (3H) bo'lgan 13 — 20 kg „o'ta og'ir“ suv bor.

Suvning qattiqligi undagi kalsiy va magniy ionlarining 1 litr suvdagi milligrammekvivalent miqdori bilan ifodalanadi. Suvni qaynatish yo'li bilan vaqtinchalik qattiqlik yo'qotiladi.





Ohakli suv qo'shib.





Ishqor ta'sir ettirib.



Soda qo'shib ionlar cho'ktiriladi.



Doimiy qattiqlikka ega bo'lgan suvgaga natriy fosfat qo'shish yo'li bilan qattiqlik yo'qotiladi.




Suvning umumiyligini qattiqlik uning namunasini qora erioxrom T ishtirokida, kompleksion III eritmasi bilan kompleksometrik titrlash orqali aniqlanadi. Kaltsiy va magniyning miqdorini alohida-alohida aniqlash zarurati tug'ilganda, dastlab, ularning umumiyligini aniqlanadi, so'ngra alohida namunada kaltsiy oksalat ko'rinishida

cho'kmaga tushiriladi va magniy ionlari titrlanadi. Analiz vaqtida tekshirilayotgan suvga ammoniy bufer eritmasi qo'shish bilan uning muhiti pH=10 ga yetkaziladi. Indikator sifatida qora erixrom T ishlataladi, u Ca⁺² va Mg⁺² ionlari bilan to'q-qizil rangli suvda eriydigan kompleksler hosil qiladi va eritma to'q-qizil tusga kiradi. Beqaror kompleks trilon B bilan titrlanganda parchalanadi va Ca⁺² va Mg⁺² ionlarining trilon B bilan beqaror kompleksi hosil bo'ladi. Reaktsiya quyidagi tenglamalar asosida o'tadi:



Hosil bo'lgan kal'tsiyli kompleks birikmaning beqarorlik konstantasi $3,0 \cdot 10^{-6}$ magniyli $1 \cdot 10^{-7}$ trilon B bilan Ca⁺² va Mg⁺² ionlarining hosil qiladigan komplekslarining beqarorlik konstantasiga nisbatan kichik . Shu sababli bu metallar ionlari bilan indikator orasida hosil bo'lgan kompleks birikma kompleks III (trilon B) ta'sirida parchalanadi va beqaror komplekslar o'rniga nisbatan barqaror komplekslar hosil bo'ladi:



Ekvivalent nuqtada eritmaning to'q-qizil rangi eritmada indikator ionlarining to'planishi natijasida ko'k (zangori) tusga o'zgaradi Kalsiyli qattiqlik esa ularning farqi orqali topiladi. Ayrim qo'shimchalar ishtirokida analizning borishi o'zgaradi. Masalan. mis, va rux ionlari sulfid ko'rinishiga o'tkaziladi, marganets oksidlanib qolmasligi uchun esa gidroksilamin qo'shiladi.Suvda Cl⁻, SO₄²⁻ va HCO₃⁻ ionlarining bo'lishi, umumiy qattiqlikni aniqlashda xalaqit bermaydi, chunki ЭКCaCO₃ < • Kkomp.Ca²⁺Kalsiy karbonat cho'kmasi erib ketadi va kalsiy kompleks III bilan to'liq filtrlanadi. Aniqlash tartibi. Suvning umumiy qattiqligini aniqlash uchun o'lchov kolbasida aniqlanadigan suvdan 100 ml o'lchab olib, konussimon kolbaga solinadi, ustidan 10 ml ammoniyli bufer aralashmasi va bir qism indikator - qora erioxrom T qo'shiladi. Aralashmani to'q-qizil rangdan binafsha rang orqali ko'k zangori rangga o'tguncha doimo aralashtirib turgan holda byuretkadagi 0,05 n trilon B eritmasi bilan filtrlanadi. Filtrlanayotganda eritmaning binafsha rangi trilon B eritmasining bir tomchisidan ko'k rangga o'tganda filtrlash tugatiladi. Ekvivalent nuqtaga yaqinlashgan sari trilon B dan asta-sekin tomizish zarur. Filtrlash 2-3 marta takrorlanadi va olingan natijalarning o'rtacha qiymatidan hisoblarda foydalaniladi.Suvning qattiqligi. 1 1 suvdagi Ca²⁺va Mg²⁺ionlarining milligramm-ekvivalent soni bilan ifodalanadi.

Xulosa: Umumiy qattiqlik darajasining yuqoriligini zararli ta'siri natijasida organizmda tuzlarning to'planishi, buyrakda, o't va peshob pufagida toshlarning hosil bo'lishiga, maishiy texnika va sanoat uskunalarini qizdirish elementlarida qoldiqlarni hosil bo'lishigai, yemrilishni oshishiga va ishdan chiqishini tezlashishga, isitish va suv bilan ta'minlash quvurlarini tiqilib qolishiga olib keladi. Bunday sabablarning oldini

olish maqsadida suvning qattiqligini bilish va yumshatish usullari ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egamberdiyev R., Inson va suv, T., 1971
2. Rahimov H. R. Anorganik ximiya, T., 1984.
3. <https://mylab.uz/elements/views?id=222>
4. <https://cheminfo.uz/suvning-qattiqligi-va-uni-yumshatish-usullari/>